

## MAMLAKAT TURIZMINING RIVOJLANISHIDA TEMIR YO'L

### TRANSPORTINING O'RNI

**Davletov Xurshid Yuldashevich,**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i.*

Tel. (93) 467 07 47

E-mail: [xurshiddavletov90@mail.ru](mailto:xurshiddavletov90@mail.ru).

**Annotatsiya.** Ushbu tezis orqali mamlakat turizm salohiyatini oshirishda temir yo'l transportining o'rni va ro'li haqida so'z yuritiladi. Turizm sohasini barcha yo'naliishlari bilan taqqoslangan holatda va bugungi kundagi holati bo'yicha atroflicha fikr yuritiladi. O'zbekistonga tashrif buyuruvchi sayyoohlarning temir yo'l transport sohasidan foydalanish salmog'i va uning mamlakat iqtisodiyotiga ulishi qiyosiy tahlili olib boriladi.

**Kalit so'zlar.** Turizm, Temir yo'l, Transport, sanoat, infratuzilma, mintaqa, kompleks

**Abstract.** This thesis talks about the place and role of railway transport in increasing the country's tourism potential. The tourism sector is compared with all its directions and a thorough consideration is given to its current state. A comparative analysis of the use of railway transport by tourists visiting Uzbekistan and its contribution to the country's economy is carried out.

**Keywords.** Tourism, Railway, Transport, industry, infrastructure, region, complex

Turizm o'zining ko'p qirrali tarkibi bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta'sir o'tkazib kelmoqda. U iqtisodiyotning ko'pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug'diradi. Jumladan, transport tarmoqlari, aloqa, yo'l qurilishi, mehmonxonalar, savdo tarmoqlari va h.k. Turizm sohasi yuksak darajada rivojlangan davlatlarda transport sohasi ayniqsa temir yo'l sohasining o'rni katta.

Turizm – faoliyat turi sifatida turistlarning doimiy yashash joyidan tashqariga chiqishi va uzviy bog'langan. Turizmning transport ta'minotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Transport vositasi turistik infratuzilmaning muhim elementi hisoblanadi va turistik mahsulotlar tarkibiga kiritilgan asosiy kompleks xizmatlarni tashkil qiladi. Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) turizm maqsadlarida qo'llaniladigan transport vositalarini uch turga klassifikasiyalaydi: quruqlikda, suvda va havoda harakatlanuvchi. Quriqlikda harakatlanish vositalaridan turizm maqsadlarida ko'proq avtomobil va temiryo'l transportlaridan foydalanish maqbul hisoblanadi. Temir yo'l transporti o'rta masofalarga turistlarni maqbul narxlarda tez va qulay sharoitda etib borishlarini ta'minlaydi. Alovida hollarda temiryo'l transporti turistik sayohat maqsadlarida ham foydalanishi mumkin. Turistlarni temiryo'lda tashish turizm transport ta'minotining samarali vositasi hisoblanadi. Sayohatning yuqori shinamligi, yuqori tezlik va maqbul narxlarda turistlar guruhini ixcham joylashtirish bu transport turini kichik va o'rta masofalarga harakatlanishda raqobatbardoshligini

oshiradi. Temiryo'l transportidan ichki va chegara yaqini turizmini shuningdek, sayru tamoshlo, ekskursion safarlar va dam olish kunlari turizmini tashkil etishda ko'proq foydalaniladi. Temir yo'llar birinchi bor paydo bo'lgan vaqtlardayoq sayohatda chinakam inqilob yasagandi. Temir yo'l transporti kemalar va otlarga qaraganda yuklarni tez va arzon tashib berishni taklif etgandi. Shimoliy Amerika va Evropada keng temiryo'l tarmoqlari rayon markazlarini temiryo'l stansiyalariga aylantirdi. Temiryo'llar nafaqat dilijonlarni (yo'lovchi tashiydigan ot-arava turi), balki 1790 yildan boshlab fransuzcha «otel» so'zi bilan ataladigan tavernilarning ham o'rnini

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON, 2024

egallaydi. Tabiiyki, qulaylik uchun otellar temiryo'l stansiyalari yonida qurila boshladi. Temiryo'llar yuqori safarbarlik namunasini ko'rsatib, mamlakatning uzoq chekkalari bilan transport aloqasini yo'lga qo'yishga imkon berdi. [1]

Ko'rinish turganidek temir yo'l sohasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti va turizm sohasini rivojlanishiga ancha katta hissa qo'shishi aniq. Buni inobatga olgan holda transport sohasiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Bugungi kundagi shahar hududidagi mavjud yo'l-infratuzilma inshootlari shahar hududida kundan kunga ko'payib borayotgan transportlar oqimini ko'tara olmasligi ayon bo'lib bormoqda. Mazkur holatlarni yaxshilash borasida bir qanch ishlar olib borilmoqda. Xususan, jamoat transportida intellektual transport tizimlarini qo'llash infratuzilmaga, transport vositalariga ta'sir qilishi va haydovchilar va yo'lovchilar kabi yo'l foydalanuvchilariga foya keltirilishi aytib o'tilgan. Shuningdek jamoat transporti tezligini orttirish vaqtini qisqartirish va harakat xavfsizligini yaxshilashga yordam berishi ta'kidlangan. [2].

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, aniq transport dengiz va okeanlardan, Evropa va Osiyodan uzoqda joylashgan tarkib transport tizimlar, ayniqsa temir yo'l liniyalari mamlakatining markazida joylashgan O'zbekiston Respublikasida muammolar bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Buning uchun mamlakatimizda transport iqtisodiyotini, xususan temir yo'lni rivojlantirish zarur transportning mavjud holatini har tomonlama ilmiy tahlil qilish, uni o'rganish, potentsialdan foydalanish darajasini baholash va bashorat qilish, yangi liniyalarga bo'lgan ehtiyojni o'rganish, o'zini oqlamaydigan liniyalarni aniqlash bu bizning oldimizda turgan vazifalardan biridir. Bunga temir yo'l transporti kiradi iqtisodiy tizimlar nuqtai nazaridan tahlil qilish va uni mamlakatlar bo'yicha umumlashtirish faqat orqali amalga oshiriladi. [3]

Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga binoan, 2000 yildan so'ng dunyo bo'yicha xalqaro sayohatga chiquvchi turistlarning aksariyati asosan avtomobil yo'llaridan (50 %) va havo transportidan (40 %) foydalanar ekanlar. Suv orqali sayohatga chiquvchilar 7 %ni, temir yo'l orqali sayohatga chiquvchilar 3 %ni tashkil etayapti. Mintaqalar bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor beriladigan bo'lsa, havo transporti va avtomobil transportidan foydalanish dunyoning barcha mintaqalarida mashhur bo'lsa, temir yo'lning mashhurligi haligacha Yevropada saqlanib qolgan (Yevropa bo'yicha amalga oshirilgan sayohatlarning 5 foizi temir yo'l transportiga to'g'ri kelsa, O'rta Sharq mamlakatlarida 0 foizni tashkil etadi). Osiyo va Okeaniya mintaqasidagi xalqaro sayohatlarning 10 foizi SUV transportiga to'g'ri kelsa, O'rta Sharq mamlakatlari va Amerika mintaqasida 5 foizni tashkil etadi. O'zbekistonga yetib keluvchi turistlarning aksariyati Toshkent – Samarqand – Buxoro - Xiva yo'nalishi bo'yicha sayohat qiladi. Chunki, O'zbekiston turizm infratuzilmasi aynan shu manzilgohlarda yaxshiroq rivojlanishgan hamda Buyuk Ipak yo'liga taalluqli ko'pgina obyektlar aynan shu joylarda saqlanib qolingga (O'zbekistonga guruhlarda tashrif buyuruvchi turistlarning aksariyati Buyuk Ipak Yo'li yo'nalishi doirasi harakatlanadilar). Shuningdek, Surxondaryo, Qashqadaryo va Farg'ona vodiysi viloyatlarida ham turistlarni jalb etishi mumkin bo'lgan ko'plab muhim turistik jozibadorliklar mavjud bo'lsada, turistik infratuzilmaning rivojlanmagani bu yerga turistlarning kelishiga to'sqinlik qilar edi. Bu kabi kamchilarni bartaraf etish maqsadida hukumatimiz tomonidan Kamchiq dovonidan o'tiluvchi yo'l takomillashtirilayapti, Surxondaryoga Samarqanddan yangi elektrishgan temir yo'l tortilayapti, joylarda ko'plab turistik mehmonxonalar buniyod etilayapti. Turizm sanoati o'z ichiga: passajir transporti (havo, SUV, avtomobil, temir yo'l)ni uning texnik xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan birlashtirilayapti, turizm tarmog'iga ixtisoslashgan turli xil korxonalarini; turizmga ixtisoslashmagan turli xil korxonalar (xususan, mashinasozlik, transport mashinasozligi, avtomobilsozlik, yoqilg'i sanoati, qurilish va yo'lsozlik, suvenirsozlik, oziq-oqvat sanoati, qishloq xo'jaligining ko'plab tarmoqlari)ni hamda turistlarga xizmat ko'rsatish sohasini oluvchi xalq xo'jaligi kompleksidir. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy Aviakompaniyasi

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON,2024

Markaziy Osiyodagi eng yaxshi aviatashuvchi tashkilotga aylantirildi; Toshkent-Buxoro temir yo‘nalishidagi xizmat darajasi ko‘tarildi, Toshkent-Samrqand yo‘nalishida shinam tezyurar poyezd qatnovi ishga tushirildi, Toshkent-Samarqand temir yo‘li butunlay elektrlashtirildi; bulardan tashqari Navoiy-Qoraqalpog‘iston temir yo‘li qurildi, yaqinda Qoraqalpog‘istondan Xorazmga Amudaryo ustidan o‘tuvchi temir yo‘l ko‘prigi qurib ishga tushirildi. Ushbu ko‘prik qurilishiga O‘zbekiston mamlakatiga temir yo‘l transportida har yili 1 mln. AQSH dollarini tejab qolish imkoniyatini qo‘lga kiritish asosiy sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, bu tadbirning turistik ahamiyati ham beqiyosdir. Shuningdek, Toshkent, Samarqand, Xorazm kabi viloyatlarda ko‘plab yangi zamonaviy mehmonxonalar qurildi, kuo‘pgina aeroportlar zamonaviylashtirildi. Shular bilan chegaralanib qolinmay, infratuzilmani rivojlantirish borasi boshqa ishlar ham olib borilmoqda. Masalan, Samarqand viloyatidan Surxondaryogacha bo‘lgan temir yo‘l tarmog‘ini elektrlashtirish, Toshkent viloyatidan Kamchiq dovoni orqali Farg‘ona vodiysiga o‘tuvchi temir yo‘l qurish, Surxondaryoda zamonaviy mehmonxonalarini ishga tushirish rejalar qabul qilingan. Mintaqalar bo‘yicha keltirilgan ma’lumotlarga e’tibor beriladigan bo‘lsa, havo transporti va avtomobil transportidan foydalanish dunyoning barcha mintaqalarida mashhur bo‘lsa, temir yo‘lning mashhurligi haligacha Yevropada saqlanib qolgan (Yevropa bo‘yicha amalga oshirilgan sayohatlarning 5 foizi temir yo‘l transportiga to‘g‘ri kelsa, O‘rta Sharq mamlakatlarida 0 foizni tashkil etadi). Osiyo va Okeaniya mintaqasidagi xalqaro sayohatlarning 10 foizi suv transportiga to‘g‘ri kelsa, O‘rta Sharq mamlakatlari va Amerika mintaqasida 5 foizni tashkil etadi.[4]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston turizmni rivojlantirish yo‘lida hal qiluvchi pallada turibdi. Temir yo‘l sohasini rivojlantirish, tashrif buyuruvchi sayyohlarga qulaylik yaratish, infratuzilmaga sarmoya kiritish, samarali marketing strategiyalarini amalga oshirish, madaniy merosini saqlash va barqaror amaliyotni qo‘llash orqali O‘zbekiston o‘zining ulkan sayyohlik salohiyatini ochishi mumkin. Mamlakat innovatsiyalar va hamkorlikni o‘zlashtirar ekan, o‘zini butun dunyo bo‘ylab sayohatchilarga boyituvchi tajribalar taklif etuvchi Markaziy Osiyodagi yetakchi yo‘nalish sifatida ko‘rsatishi mumkin. Birgalikda sa‘y-harakatlar va strategik rejalshtirish bilan O‘zbekiston o‘zining noyob o‘ziga xosligi va tabiiy boyliklarini kelajak avlodlar uchun saqlab qolgan holda gullab-yashnayotgan turizm markaziga aylanish haqidagi tasavvurini amalga oshirishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.M.Mamatqulov, S.A.Abduhamedov, M.X.Xamitov. Turizm infratuzilmasi. - Samarqand-2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori <https://lex.uz/docs/-6386205#-6387283>
3. Development of the service sector in the Republic of Uzbekistan, 2020
4. F.K.Kamilova, Sobirjon Samatovich. Turizm marketingi. Toshkent
5. Ro‘ziyev S.S. "Turistik obyektni rivojlantirish muammolari", Turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari. Respublika ilmiyamaliy anjumani materiallari. Buxoro 2000 yil 14-16 iyun.)